

**“TASDIQLAYMAN”
“Temiryo‘lyonilg‘ita‘min”
boshqarmasi boshlig‘i**

A.R.Odilov

2026-yil 18-mart

**“Temiryo‘lyonilg‘ita‘min” boshqarmasi boshlig‘i tomonidan o‘tkazilgan videoselektor
yig‘ilish bayonnomasi**

2026-yil 18-mart

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi:

**“Temiryo‘lyonilg‘ita‘min» boshqarmasi boshlig‘i
A.R.Odilov.**

Taklif qilindi:

**Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi
boshlig‘i F.Yu.Zulfikarov.**

Yig‘ilish qatnashchilari:

**Boshqarma bosh muxandisi-O.E.Ummatov
Bosh hisobchi -F.Yu.Irgashev
bo‘lim boshliqlari hamda barcha BYoOX
boshliqlari va bosh hisobchilar.
Jami: 43 nafar shaxslar.**

KUN TARTIBI:

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJda va uning alohida bo‘linmalarida “Korrupsiyaga qarshi kurash va uning oldini olish” mavzusida o‘quv seminar va jamiyatning 2025-yil 12-sentabrdagi 438-N-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan "Yangi tahrirdagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha asosiy ichki idoraviy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida" buyrug‘i va 2022 yil 25-oktyabrdagi 1015-N-sonli “Jamiyatning odob-ahloq qoidalariga rioya etilishini ta‘minlashga doir ichki idoraviy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i bilan tanishtirish va mazmun mohiyatini tushuntirish.

YIG‘ILISHNING BORISHI

Boshqarma boshlig‘i A.R.Odilov, so‘zga chiqib, kun tartibidagi masalalar yuzasidan yig‘ilganlarni tanishtirib, quyidagilarni ta‘kidlab o‘tildi.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan “Davlat taraqqiyotiga to‘siq bo‘ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan korrupsiya illatiga qarshi kurashda 2026-yil **“favqulodda holat”** yili sifatida belgilandi.

Bu borada, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJda ham korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida, korrupsiyaga imkon berayotgan shart-sharoitlar va omillarni bartaraf etish, ochiqlik va shaffoflikni, korrupsiya jinoyatlari uchun javobgarlikning muqarrarligini ta‘minlash, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida muhim islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Jamiyat boshqaruv raisi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida, amalga oshirilayotgan ishlarni izchillik bilan davom ettirish, yoqilg‘i moylash resurslarining butligini saqlash va ulardan samarali foydalanishga to‘siq bo‘ladigan va bu borada huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish maqsadida aniq vazifalari belgilab berilgan.

Jumladan, korxonalar va tashkilotlar rahbariga yoqilg‘i-moylash mahsulotlarini belgilangan talablarga rioya qilgan holda saqlanishi, taqsimlanishi, iste‘mol qilinishi va ulardan oqilona foydalanilishi ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatish;

- yoqilg‘i-moylash resurslaridan noqonuniy foydalanish, ularni talon-toroj qilish holatlarining oldini olish maqsadida qonun talablarini buzgan shaxslarga nisbatan javobgarlik muqarrarligi borasida davlat huquqni muhofaza qilish organlari vakillari ishtirokida tushuntirish ishlari olib borish lozimligini;

- yoqilg'i-moylash resurslarini saqlash, taqsimlash, tashish, jarayoni sarfi doimiy tarzda o'rganilib, tashkilotlar o'rtasida tizimli axborot almashinuvi yo'lga qo'yish shartligi belgilab berilganligini;

- moddiy javobgar shaxslari tomonidan yonilg'i-moylash materiallarining saqlanishi, to'g'ri hisobga olinishi, sarflanishi va hisobdan chiqarilishini aks ettiruvchi tegishli hujjatlarning o'z vaqtida rasmiylashtirilishi ta'minlash uchun ularning ish faoliyati yuzasidan nazoratni kuchaytirish lozimligini;

-yoqilg'i-moylash resurslarini saqlash, taqsimlash, tashish jarayonidagi ko'rsatkichlari hamda ulardan ishlab chiqarish va texnik ekspluatatsiya jarayonida iste'moli bo'yicha sarf ko'rsatkichi tahlil qilib borish, bunda o'lchov qurilmalarining yaroqlilik holati doimiy nazoratga olish lozimligini;

- yoqilg'i-moylash resurslari hajmi o'rtasidagi tafovutlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish imkonini beruvchi, raqamli texnologiyalarni joriy etgan holda inson omili aralashuvini kamaytiruvchi yangi nazorat mexanizmlari ishlab chiqilishi va amalyotda qo'llanishi lozimligini aytib o'tdi.

Shundan so'ng, **Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig'i F.Yu.Zulfikarov**, kun tartibidagi masala yuzasidan so'zga chiqib, 2025-yil davomida, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar va korrupsiya bilan bog'liq sodir etilgan holatlar tanishtirib o'tdi.

Shuningdek, yig'ilish davomida, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida, Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning topshiriqlaridan kelib chiqqan holda, Jamiyat boshqaruv raisi Z.G'.Narzullaev tomonidan mazkur sohada amalga oshirish lozim bo'lgan vazifalar belgilab berilgan.

Mazkur berilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasi bir qator ishlar amalga oshirish lozimligini aytib o'tdi.

Korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.

Jamiyat tomonidan 2025 yil 12-sentabrdagi 438-N-sonli **"Yangi tahrirdagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha asosiy ichki idoraviy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"** buyrug'i va 2022 yil 25-oktyabrdagi 1015-N-sonli "Jamiyatning odob-ahloq qoidalarga rioya etilishini ta'minlashga doir ichki idoraviy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i bilan tanishtirildi va mazmun mohiyatini tushuntirib berildi.

Asosiy e'tiborni korrupsiyaviy harakatlarni oldini olish borasida, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari ishtirokida, qonun talablarini buzgan xar bir shaxslarga nisbatan javobgarlik muqarrarligi tushuntirish lozimligini;

Respublika xududida, sodir etilayotgan va ommaviy axborot vositalarida nomoish etib borilayotgan korrupsiyaviy harakatlarni bog'liq holatlarni tanishtirib borish lozimligini va uning oqibatlarni nimalarga olib kelayotganligini ishchi-xodimlarga tushuntirish o'tkazish lozimligini aytib, o'tdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda va Jamiyat boshqaruv raisi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida, amalga oshirish lozim bo'lgan topshiriq talablaridan kelib chiqqan holda, boshqarma boshlig'i A.R.Odilov tomonidan mas'ul xodimga, rahbar hodimlarga hamda moddiy javobgar shaxslarga aniq vazifalarni belgilab berildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan yig'ilish;

QAROR QILADI:

1. "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi bo'yicha Davlat dasturi ijrosini ta'minlash va bu turdagi huquqbuzarliklarni oldini olish borasida tegishli choralar ko'rib borilsin.

2. Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig'i F.Yu.Zulfiqorovni o'quv seminarda "Korrupsiyaga qarshi kurash va uning oldini olish" mavzusida ma'ruzasi ma'lumot va amaliyotda qo'llash uchun qabul qilinsin.

3. Barcha xodimlardan korrupsiyaga nisbatan murosasiz kurashish, korrupsiya bilan bog'liq holatlarga aralashmaslik, bu turdagi huquqbuzarlik sodir etmaslik bo'yicha tushuntirish

ishlari amalga oshirilish muntazam amalga oshirish chora ko'rilsin va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan xar oy yakuni bo'yicha yozma ravishda axborot berilishi boshqarmaning xodimlar bo'limiga yetkazilishi ta'minlansin.

3.1. Yoqilg'i-moylash mahsulotlarini belgilangan talablarga rioya qilgan holda saqlanishi, taqsimlanishi, iste'mol qilinishi va ulardan oqilona foydalanilishi ustidan qat'iy nazorat kuchaytirilsin.

3.2. Yoqilg'i-moylash resurslaridan noqonuniy foydalanish, ularni talon-toroj qilish holatlarining oldini olish maqsadida qonun talablarini buzgan shaxslarga nisbatan javobgarlik muqarrarligi borasida davlat huquqni muhofaza qilish organlari vakillari ishtirokida tushuntirish ishlari olib borilsin.

3.3. Moddiy javobgar shaxslar tomonidan yonilg'i-moylash materiallarining saqlanishi, to'g'ri hisobga olinishi, sarflanishini va hisobdan chiqarilishini aks ettiruvchi tegishli hujjatlarning o'z vaqtida rasmiylashtirilishi ta'minlanishi yuzasidan nazoratni kuchaytirilsin.

3.4. Yoqilg'i-moylash resurslarini saqlash, taqsimlash, tashish jarayonidagi ko'rsatkichlari hamda ulardan ishlab chiqarish va texnik ekspluatatsiya jarayonida iste'moli bo'yicha sarf ko'rsatkichi tahlil qilib borilsin va bunda o'lchov qurilmalarining yaroqlilik holati doimiy nazoratga olinsin.

3.5. Yoqilg'i-moylash resurslari hajmi o'rtasidagi tafovutlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish imkonini beruvchi, raqamli texnologiyalarni joriy etgan holda inson omili aralashuvini kamaytiruvchi yangi nazorat mexanizmlari ishlab chiqilsin va amalyotda qo'llanish choralari ko'rilsin.

4. "O'zbekiston temir yo'llari" AJning korrupsiyaga qarshi kurash va uning oldini olish borasida, asosiy ichki idoraviy hujjatlarini ijrosini ta'minlashgan birinchi rahbarlar mas'ul ekanliklari eslatib o'tilsin.

5. "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi va "O'zbekiston temir yo'llari" AJning korrupsiyaga qarshi kurash va uning oldini olish borasida, asosiy ichki idoraviy hujjatlarini mazmun mohiyati bo'yicha ishchi xodimlar o'rtasida muntazam tushuntirish ishlari olib borilishi ta'minlansin.

6. Boshqarma va Barcha BYoOXlari ishchi-xodimlar jamiyatning 12.09.2025 yildagi 438-N-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha asosiy ichki idoraviy hujjatlari" va 25.10.2022 yildagi 1015-N-sonli buyruq bilan tasdiqlangan "O'zbekiston temir yo'llari" AJ xodimlarining odob-axloq Kodeksi" tanishtirilsin va tegishli tartibda rasmiylashtirilsin.

7. Yig'ilish bayonnomasini mas'ul xodimlarga tanishtirish va yuborish, xodimlar va ijtimoiy masalalar bo'yicha boshliq yordamchisi N.M.Xoshimovga yuklatilsin.

8. Mazkur yig'ilish qarorini ijrosini nazorat qilish boshqarma bosh muhandisga yuklatilsin.

Bayonnomani yurituvchi

N.M.Xoshimov

